

**2022**

## **Bank aktivlari va kapitali**

2022-yilda Bank jami aktivlarini – **15 700,0** mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirilib, jami aktivlar tarkibida foizli daromad keltiruvchi aktivlar salmog‘ini va sifatini oshirish ko‘zda tutildi.

Bank kapitalining yetarli darajada o‘rishini ta‘minlash orqali kapital monandligiga qo‘yilgan talablarga rioya qilish maqsadida rejalashtirilayotgan yilda olinadigan sof foyda va 800 mlrd. so‘m aksiyalarni emissiya qilish hisobiga Bank xususiy kapitalini 2022-yil yakunida **2 634,7** mlrd. so‘mga yetkazish ko‘zda tutildi.

Bankning kapitallashuv darajasini 2022-yilda kamida **58,0** foiz miqdorida oshirish rejalashtirildi.

## **Korporativ biznes**

2022-yilda Bankning mavjud tarkibiy bo‘linmalari hamda KXKMLari faoliyatini yanada samarali tashkil qilish orqali Bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha istiqbolli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ko‘zda tutilgan.

Bunda, asosiy e‘tibor, tadbirkorlik sub‘ektlarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini, shuningdek, ularga jozibador bank xizmatlari va mahsulotlari to‘g‘risida ma‘lumotlarni yetkazish hamda mijozlarni mavjud muammolarini tizimli hal etish yo‘li bilan har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi.

Korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish hamda modernizatsiya qilish bilan birga, ularning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlari ham qondirib boriladi.

Bankning o‘z mablag‘lari hamda jalb qilingan mablag‘lari hisobidan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga 2022-yil mobaynida **4 450,0** mlrd. so‘m miqdorida kreditlar ajratilishini, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar qoldig‘ini 2022-yil yakuniga qadar **8 000,0** mlrd. so‘mga yetkazish belgilandi.

Bunda, kredit mablag‘lari investitsiya va hududiy dasturlarga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish hamda mavjud korxonalarining aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Bankning yangi tashkiliy tuzilmasiga asosan, **anderrayterlar** faoliyati tashkil qilinib, ularning vakolat darajalari hamda funksional vazifalari aniq belgilab beriladi.

**Anderrayterlar** o'z vakolatlari doirasida ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz hamda Bosh bank yoki kredit komissiyalarining aralashuvisiz kredit ajratish yuzasidan mustaqil qaror qabul qiladilar.

Yangi joriy qilingan avtomatlashtirilgan bank tizimi yordamida amalga oshiriladigan skoring va reyting natijalaridan kelib chiqqan holda modulli kreditlarni ajratish jarayonida nafaqat kredit komissiyalari, balki anderrayterlar aralashuvi ham talab qilinmaydi.

Mijozlarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish maqsadida, «Aloqabusiness» mobil ilovasi orqali yuridik shaxslarga modulli kreditlarni («Onlayn mikrokredit», «Onlayn avtokredit», «Onlayn aylanma mablag'») amaliyotga joriy qilish ko'zda tutilgan.

Bankning barcha hududiy tarkibiy bo'linmalarida tashkil qilingan «risk-menejerlar» faoliyatining samaradorligini muntazam ravishda oshirib borish yuzasidan zaruriy choralar ko'riladi.

Bank aktivlarining barqaror o'sib borishi bilan birga ularning sifatini doimiy ravishda yuqori darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida quyidagilar rejalashtirilmoqda:

- kredit portfeli sifatini saqlagan holda investitsion loyihalarni kreditlash hajmini maqsadli oshirib borish;
- yuqori samarali, ya'ni YaIMning o'sishini ta'minlovchi, doimiy ish joylarini yaratuvchi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi, energiya tejamkor, aniq targetlangan bozorga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi loyihalarni aniqlash bo'yicha mukammal tizim yaratish;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklardan jalb qilinadigan kredit liniyalari va boshqa moliyalashtirish instrumentlaridan faol foydalanish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq investitsion loyihalarni faol moliyalashtirish.

## **Chakana biznes**

2022-yilda Bank tarmoqlari sonining ortishi, Bankning xizmat ko'rsatish geografiasining sezilarli darajada kengayishi hisobiga moliyaviy yil davomida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ini **1 700** mlrd. so'mga yetkazish belgilandi.

Chakana biznes faoliyatini rivojlantirish uchun Bank tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- jismoniy shaxslar uchun qulay bo'lgan yangi turdagi kredit mahsulotlarini yaratish;

- Bankning «Zoomrad» mobil ilovasi orqali mijozlarga onlayn kreditlar ajratish ko'lamini kengaytirish;

- kredit kartalarini chiqarish orqali yangi kredit turlarini joriy qilish;

- kredit mahsulotlarini sotish kanallarini ko'paytirish orqali kredit portfelini va mijozlar bazasini kengaytirish;

- aholining maishiy va boshqa turdagi ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun jozibador shartlardagi iste'mol kreditlari ajratishni yanada kengaytirish;

- aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida uy-joy sotib olish va yakka tartibdagi uy-joyni qurish (rekonstruksiya qilish) uchun qulay shartlarda ipoteka kreditlari ajratish ko'lamini yanada kengaytirish;

- jismoniy shaxslarga kredit ajratilishida avtomatlashtirilgan skoring tizimidan foydalangan holda, mijozlarning daromadlari, kredit tarixi, ajratiladigan kredit summasi va muddatidan kelib chiqib kredit bahosini shakllantirishni amaliyotga joriy etish.

Bank xizmatlari iste'molchilariga yanada keng qulayliklar yaratish, moliyaviy xizmatlar jozibadorligini oshirish hamda ommabopligini kengaytirish maqsadida 2022-yilda Bank tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mijozlarga qulay va foydali yangi turdagi omonatlarni, xususan mobil ilova orqali chet el valyutasida onlayn omonat joriy etish;

- omonatlarni rasmiylashtirishda omonat daftarcha va shaxsiy hisobvaraqlar ochishdan voz kechish hamda mijozlarga mobil ilova orqali o'zining barcha onlayn va HKXKM yoki KXKMLar orqali ochilgan omonatlarini nazorat qilish hamda ularni boshqarish amaliyotlarini joriy qilish;

- mijozlar «Zoomrad» mobil ilovasi orqali o'z omonatlari va unga hisoblanayotgan foizlar aylanmasini kuzatib borish uchun qo'shimcha monitoring funksiyalar kiritish;

- «Zoomrad» mobil ilovasi orqali mijoz o'z hisobvaraqlari aylanmasi bo'yicha ko'chirmalarni elektron olish imkoniyatini yaratish;

- amaldagi xalqaro pul o'tkazmalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, mijozlar uchun qulay bank xizmat turlarini taklif etish;

- xalqaro pul o'tkazmalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, faoliyat daromadlilikini oshirish, ish

jarayonidagi barcha amaliyotlarni to'liq integratsiyalashgan tizimda olib borishni amalga oshirish;

- xalqaro pul o'tkazmalarni amalga oshiruvchi yangi tashkilotlar bilan hamqorlikni yo'lga qo'yish va xizmat ko'rsatish geografiyasini kengaytirish;

- pul o'tkazma amaliyotlarini masofadan onlayn tarzda bank mobil ilovasi orqali amalga oshirishni kengaytirish;

- 2022-moliyaviy yil davomida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalari aylanmasidan olinadigan daromad hajmini **8,8 trln.** so'mga yetkazish;

- valyuta ayirboshlash operatsiyalarning uzluksizligini ta'minlash hamda mijozlarga 24/7 rejimida xizmat ko'rsatish maqsadida mavjud avtovashlarni texnik ko'rikdan o'tkazish va to'liq ishlashini ta'minlash hamda avtovash mavjud bo'lmagan hududlarda yangi avtovashlar sonini oshirish;

- universal kassalar orqali komunal to'lovlar va bir martalik to'lovlar hajmini oshirish va undan olinadigan daromadlar hajmini **8 mlrd.** so'mga yetkazish.

### **Moliyaviy natijalar (daromad, xarajat va foyda)**

2022-yilda Bank oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarning bajarilishi natijasida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi rejalashtirilmoqda.

Jumladan, 2022-yilda bank daromadini **1,12 barobarga** o'sishini ta'minlagan holda, **1 808,0** mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirildi. Daromadlarning **1 288,0** mlrd. so'mi (71,2 foizi) foizli daromadlar, **520,0** mlrd. so'mi (28,8 foizi) foizsiz daromadlardan tashkil topadi.

2022 yilda jami **1 588,0** mlrd. so'mlik bank xarajatlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, ularning **698,7** mlrd. so'mi foizli xarajatlar, **273,8** mlrd. so'mi foizsiz xarajatlar va **615,5** mlrd. so'mi amaliyot xarajatlaridan iborat bo'ladi.

Bankning sof foydasi 2022-yil uchun – **220,0** mlrd. so'm miqdorida belgilangan.

Natijada Bankning kapital rentabelligi ko'rsatkichini (ROE) – **12,8** foizga va bank aktivlari rentabelligi ko'rsatkichini (ROA) – **2** foizga yetkazish rejalashtirildi.

*mlrd. so'mda*

Ko'rsatkichlar	2022 yil		
	Reja	Fakt	Bajarilishi
<b>Aktivlar</b>	15 700,0	16 083,6	102%

<b>Majburiyatlar</b>	13 065,3	14 288,2	109%
<b>Xususiy kapital</b>	2 634,7	1 795,3	68%
<b>Jami daromad:</b>	2 140,7	2 335,7	109%
<i><b>foizli daromad</b></i>	1 458,6	1 499,5	103%
<i><b>foizsiz daromad</b></i>	682,0	836,1	123%
<b>Jami xarajat:</b>	1 920,4	2 107,3	110%
<i><b>foizli xarajat</b></i>	922,4	993,8	108%
<i><b>foizsiz xarajat</b></i>	321,8	399,0	124%
<i><b>operatsion xarajat</b></i>	676,2	714,4	106%
<b>Sof foyda</b>	220,2	228,4	104%